MAKTABDA MUSIQA FANIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.

Abduvaxobova Nilufar Abdumannon qizi, Guliston davlat pedagogika insitituti Musiqa ta'limi yo'nalishi 2-bosqich talabasi
e-mail: abduvaxobova996@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada umum ta'lim maktabida musiqa fanini o'qitishda innovatsion pedagogic texnologiyalardan foydalanish haqida yoritiladi. Musiqa ta'limda zamonaviy texnologiyalarni ahamiyati,ularning bolalarning ijodkorligini rivojlantirishga ta'siri va ta'limning samaradorligini oshirishdagi roli muhokama qilinadi. Shuningdek maqolada,texnologiyalar turlari va ulardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: innovatsion pedagogik texnologiyalar, musiqa ta'limi, maktabda musiqa, ijodkorlikni rivojlantirish, interaktiv o'qitish.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ НА МУЗЫКАЛЬНОМ УРОКЕ В ШКОЛЕ.

Аннотатция: В данной статье описано использование инновационных педагогических технологий при обучении музыке в общеобразовательной школе. Будет обсуждено значение современных технологий в музыкальном образовании, их влияние на развитие творчества детей и их роль в повышении эффективности образования. Также в статье даны рекомендации по видам технологий и их использованию.

Ключивый слова: инновационные педагогические технологии,музыкальное образование,музыка в школе,развитие творческих способностей,интерактивное обучение.

USE OF INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN MUSIC AT SCHOOL.

Annotation: This article explores the use of innovative pedagogical technologies in teaching music at schools. It analyzes the importance of modern technologies in music education, their impact on developing students' creativity, and their role in enhancing teaching efficiency.

Key words:innovative pedagogical technologies,music education,school music lessons,creativity development,interactive teaching.

Kirish. Musiqa fani insonni hayotida katta o'ringa egadir, musiqa insonga sokinlik va ijodiy rivojlanish beradi. Musiqa nafaqat ko'ngil ochar balki ma'naviy va madaniy rivojlanishni ham beradi. Yosh avlodimizni fikrlash doirasini oshirish maqsadida bizning darsliklarimizga Musiqa madaniyati darslari kiritilgandir. Musiqa madaniyati insonni hushfe'llikka va kayfiyatiga ham juda katta ta'siri mavjuddir. Musiqa madaniyati darslari yosh avlodni estetik didini oshirish ijodkorligini rivojlantirish milliy qadriyatlarimizni anglash hamda musiqiy saviyani oshirishga xizmat qiladi. Ushbu asarlar orqali nafaqat o'quvchilar turli asarlarni ijro

etishga balki musiqa asarlarini tarixini va nazariy jihatlarini ham o‘rganishadi. Shu sababli ta’lim tizimimizda Musiqa madaniyati fani jamiyatning ma’naviy rivojlanishida alohida o‘rin tutadi. Bugungi kunda globallashuv jarayonida milliy musiqamizni targ‘ib qilish va kelgusi avlodga yetkazish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Musiqa madaniyati darslari esa bu maqsadimizni amalga oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli, ushbu darslar nafaqat musiqiy ko‘nikmalarni shakllantirishda, shuningdek yosh avlodlarimizni yuksak ma’naviyatli va madaniyatli shaxs sifatida tarbiyalashning asosiy vostalaridan biri hisoblanadi. Oldin aytib o‘tganimizdek musiqaning inson ruhiyatiga bo‘lgan ijobiy ta’siri tufayli bu darslar bolalar va o‘smirlarning hissiy olamini boyitib, ularni o‘zaro hurmat, tinchlik va birdamlik kabi insoniy fazilatlarga o‘rgatadi.

Hozirda musiqa madaniyati fanida Innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish bugungi kunda ta’lim sohasida innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish dolzarb masalalardan biri bo‘lib, ular o‘quv jarayonini samarali, qiziqarli va interaktiv qilishga xizmat qilmoqda. [1] Musiqa madaniyati fani faqat musiqiy iste’dodlarni kashf qilish bilan cheklanib qolmaydi. Turli xil pedagogik texnalogiyalarni o‘rganish va o‘rgatishga qaratiladi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida musiqa fanida innavatsion pedagogik texnalogiyalardan foydalanish barcha musiqa raxbarlariga qo‘l keladi. XX-XXI asr musiqa pedagogikasida innavatsion texnalogiyalaridan foydalanish muhim. Xozirda yurtimizda “Zamonaviy ta’lim va xorijiy tajribalar innavatsion texnalogiyalar”dan foydalanish yurtimizda keng targ‘ib qilinmoqda.

Innovatsiya haqida ozgina ma’lumotga ega bo‘ladigan bo‘lsak-innovatsiya ilmiy va ilg‘or tajribalar asosiga asoslangan texnalogiyalar va o‘z soxasidagi yangiliklar va ularni turli xil sohalarda qo‘llanilishidir.

Fanni o‘qitishda:

1. Tizimli yondashuv;
2. Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv;
3. Dialogik yondashuv judaham qo‘l keladi. [2]

Musiqa madaniyati darslarida ushbu innavatsion texnalogiyalar tajribalar fanni o‘qitishdagi yo‘nalishlar juda qo‘l keladi va bular haqida men yoritib beraman.

Metodologiya. Ushbu maktabda musiqa fanida innavatsion texnalogiyalarini qo‘llash imkoniyatlari, usullari va ularning ta’sirlarini o‘rgatishga qaratilgandir. Tadqiqot natijasida ushbu maqolaga quyidagi metodologik yondashuvlarni amalga oshirishni yozib o‘tamiz.

Nazariy asoslar tahlili: Musiqa ta’limida innavatsion texnalogiyalarning o‘rni va ahamiyatini o‘rganish uchun ilmiy adabiyotlar, maqolalar va konferentsiyalarni tahlil qilamiz. Musiqa fanida ilg‘or o‘quv usullar va texnalogiyalarning nazariy jihatlarini aniqlaymiz.

Ekspremental yondashuv. Musiqa fanida o‘quvchilar o‘rtasida turli innovatsion texnologiyalar, masalan, interaktiv doskalar, virtual sinflar, audio-vizual taqdimotlar va mobil ilovalarning qo‘llanilishi bo‘yicha eksperimentlar o‘tkaziladi.

O‘quvchilarning bu usullarni qabul qilish darajasi, faolligi va bilimlarni o‘zlashtirish darajasi kuzatiladiva tahlil qilinadi.

Taqqoslash usuli. An’anaviy musiqa darslari bilan innovatsion texnologiyalar yordamida o‘tkazilgan darslar natijalari taqqoslanadi. Bu yondashuv orqali o‘quvchilarning musiqiy bilimlari, ijodkorlik ko‘nikmalari va o‘zlashtirish samaradorligi o‘lchanadi. Chunki bu o‘zgarishladan so‘ng ancha natijaga erishilgan bo‘ladi.

Sotsiologik tadqiqot. O‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasida so‘rovnoma va intervyular o‘tkaziladi. Bu metod esa barcha o‘qituvchi va o‘quvchilarning bir-biri bilan munosabati va fikr almashuvini hosil qilishga yordam beradi.

Musiqa fanida texnologiyalar qo‘llanilgan dars jarayonlarini kuzatish orqali o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini va faol ishtirokini tahlil qilish mumkundir.

Eksperiment usulida esa: an’anaviy dars usullari bilan innovatsion texnologiyalar yordamida o‘tilgan darslarni taqqoslash mumkundir. So‘rovnoma va intervyu usulida esa: O‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasida texnologiyalarning foydasi va qiyinchiliklari haqida fikr olish mumkundir.

Statistik ma’lumotlarni tahlil qilish ham juda qulay metoddir. Innovatsion texnologiyalarni qo‘llashdan oldin va keyin o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini baholash uchun natijalarni tahlil qilish ham kerakdir.

O‘quvchilarning musiqiy savodxonligi va ijodiy ko‘nikmalaridagi o‘zgarishlarni raqamli ko‘rsatkichlar yordamida baholash eng keraklisi hisoblanadi.

Dars uchun mos keladigan texnologik vositalar (interaktiv doska, multimediali kontent, mobil ilovalar) va metodlarni tanlash juda muhim hisoblanadi. Ularning yoshiga mos materiallar tayyorlash juda ham zarurdir. Tadqiqotning ilmiy yangiligi

maktabda musiqa fanida texnologiyalarni qo‘llashning samaradorligi bo‘yicha empirik ma’lumotlarni taqdim etish kerakdir.

Interaktiv va multimedia vositalarining musiqiy ta’limga qo‘shadigan hissasini aniqlash juda samaralidir. Aynan musiqa sohasida bolalar faqatgina matnlarni yodlash yoki ma’ruza eshitishga emas mavzudagi asarlarni ijro etishi kuylarni eshitib ritmni his qilib raqsga tushishi yoki qarsak orqali harakatlanishlari maqsadga muvofiqdir. Darslarni amaliy bajarishlari ham pedagogning qobiliyati va malakasiga bog‘liqdir. Ayniqsa, musiqa fani kabi ijodiy yondashuvni talab qiladigan fanlarda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi.

Innovatsion texnologiyalarning roli. Musiqa ta’limida innovatsion texnologiyalar quyidagi maqsadlarga erishishga yordam beradi:

1. **Qiziqishlarini oshirish:** O‘quvchilarda musiqa faniga bo‘lgan qiziqishlarini uyg‘otish uchun multimedia resurslaridan, virtual musiqiy dasturlar va o‘yin shaklidagi mashg‘ulotlardan foydalaniladi.

2. **Ijodkorlikni rivojlantirishda:** Kompyuter dasturlari orqali o‘quvchilar musiqa yaratish va uni tahrir qilishni o‘rganishadi.

3. **Individual yondashuv:** Ya’ni har bir o‘quvchining qobiliyatiga mos texnologiyalar tanlanib, o‘quv jarayoni shaxsiylashtiriladi.Ular o‘z uslublari bo‘yicha ijod qilishga qo‘yib berish.

Agarda bu texnalogiyalardan foydalanilsa dars samaradorligi ancha o‘zgaradi va o‘quvchilar yanada jiddiy darsga kirishishni boshlashadi. Bolalarga vizual tarzda har bir jarayon haqida ma’lumotlarni ko‘rsatishimiz kerak.

Vizual-bu ranglarni, shakllarni narsa va hodisalarni obyektlarni yetarliligi ya’ni onlayn tarzda ko‘ra olishdir. Va bu narsaga am to‘xtalib o‘tamiz.

Texnologiyalar turlari haqida gaplashadigan bo‘lsak. Musiqa fanida qo‘llaniladigan zamonaviy texnologiyalarning bir nechtasi mavjud:

Interaktiv aqilli taxta - (Eiboard Interactive Smart Board ED seriyasi ya’ni, interaktiv doska sifatida, planshet va kompyuterning birlashtirilgan aqlli displeyli taxta deb nomlanuvchi.

Interaktiv taxta: Musiqiy notalar va asboblarni vizual ko‘rsatib, ularni o‘quvchilarga oson tushuntirish imkoniyatini beradi.

Musiqiy dasturlar: GarageBand, Finale yoki Sibelius kabi dasturlar yordamida o‘quvchilar o‘z qo‘shiqlarini yaratishlari va ular ustida ishlashlari mumkin.

Virtual realnost texnologiyalari: O‘quvchilarni musiqiy asarlar ijro etiladigan virtual dunyoga olib kirib, ularni notalar va musiqiy asboblarning o‘zaro aloqasini tushunishlari mumkindir.

Video va audio materiallar: Mashhur kompozitorlar ijodi va musiqa asarlarini tahlil qilish uchun sifatli materiallardan foydalanish samaradorlikni oshiradi.Shubilan birga ularni eshitish orqali tezda yodlab olishadi va biror bir joyda ko‘rishsa bemalol shu haqida ma’lumot aytib bera olishadi.

To‘g‘ri ushbu usulda bolalar ozgina qiynalishi mumkin ammo boshidan ushbu usullar o‘rgatilib kelinsa ular ushbu sohada o‘zlariga yetarli darajadagi bilimga ega bo‘lishadi.

Pedagogik yondashuv eng asosiysidir.

Musiqa fanida innovatsion texnologiyalardan foydalanishda quyidagi pedagogik yondashuvlar tavsiya etiladi:

1. Integratsiyalashgan o‘qitish: Musiqa fanini boshqa fanlar bilan bog‘lab, ko‘p tarmoqli yondashuv yaratish. Masalan, tarix va musiqa orqali madaniy rivojlanishni o‘rganishlari mumkun.

2. Ijtimoiy hamkorlik: O‘quvchilarning guruh bo‘lib ishlashini ta’minlash va ular o‘rtasida ijodiy hamkorlikni kuchaytirish. Jamoa bo‘lib ishlashlari ularni yanada jipislashtiradi.

3. Interfaol o‘yinlar: Musiqiy bilimlarni o‘yin shaklida o‘rganish jarayonni yanada qiziqarli qiladi.

Adabiyotlar tahlili va natijalar.

Aynan shu navzuimiz bo‘yicha Saidov R. “Ta’limda innovatsion yondashuvlar: Musiqa madaniyati metodikasi” kitobida musiqa ta’limida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning usullari va ahamiyati keng yoritilgandir. [3] Mavlonova G.ning “Ta’limda interaktiv metodlar: Nazariya va amaliyot” kitobida ta’lim jarayonida interaktiv texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar, xususan, musiqa darslari uchun mos metodlar ko‘rsatilgan bu kitobdan bemalol foydalanib turli yo‘llar bilan darsni mazmunli o‘tkazish mumkundir. [4]

Jononov A. “Musiqa fanida yangi texnologiyalarni qo‘llashning samaradorligi” asarida musiqa fanida multimediya vositalari, raqamli platformalar va ijodkorlikni rivojlantiruvchi ilovalarning qo‘llanilishi tahlil qilingan. [5] Collins A., Halverson R. Rethinking Education in the Age of Technology, (2018) . Ushbu xalqaro manbada ta’lim jarayonida texnologiyalarning roli va ulardan foydalanish strategiyalari haqida fikrlar keltirilgan. Bu ma’lumotlar innavatsion texnalogiyalarni boyitishga juda katta yordam beradi. [6]

Innovatsion texnologiyalar musiqa darslarini samarali, qiziqarli va interaktiv qiladi. Masalan, o‘quvchilar virtual musiqiy asboblar yordamida ijro mahoratini oshirishi yoki multimediali vizualizatsiyalar orqali musiqa tarixini yaxshiroq tushunishi mumkin.

Interaktiv doska va mobil ilovalar orqali darslarda nafaqat bilim o‘rganiladi, balki ijodiy mashqlarni ham mustaqil bajarish imkoniyati yaratiladi.Zamonaviy texnologiyalar o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi va an’anaviy dars usullaridan farqli o‘laroq, ularni jarayonga faolroq jalb etadi va o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi oshib boradi.

Natijalar va istiqbollar yani kelgusida bo‘ladigan o‘zgarishlar. Natijada innovatsion texnologiyalarni qo‘llagan maktablarda o‘quvchilarning musiqa faniga bo‘lgan qiziqishi 20-30% ga oshgani qayd etilganini ko‘ishimiz mumkun bo‘ladi.

Audio-vizual vositalar yordamida musiqa tarixini o‘qitish samaradorligi oshib, o‘quvchilarning asarlarni tushunish darajasi sezilarli yaxshilangan bo‘ladi. O‘quvchilar musiqa asboblarini virtual platformalarda o‘rganish orqali texnik mahoratini tezroq rivojlantiradi.

O‘qituvchilarning fikriga ko‘ra, texnologiyalardan foydalanish dars jarayonini tezlashtirib, o‘quvchilarni ma’lumotlarni mustaqil o‘rganishga undaydi. Innovatsion texnologiyalardan foydalanish natijasida o‘quvchilar nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtiradilar, balki amaliy ko‘nikmalarni ham shakllantira boradilar. Ularning

ijodiy fikrlash qobiliyati va musiqa madaniyatiga bo‘lgan qiziqishi oshadi. Kelajakda yangi texnologiyalarni ta’lim jarayoniga kengroq tatbiq etish bu sohadagi samaradorlikni yanada oshiradi

Attestat olishda, hammamiz o‘rganganmiz - fizika, matematika bo‘yicha baho bo‘ladi. Topshiriq berdimki, endi attestatda har bir maktabda 11-sinfni bitirgan bolalarimiz bitta cholg‘u asbobini o‘rgangan degan bahosi bo‘ladi”. Degan gaplarini biz amalga oshirish uchun o‘z hissamizni qo‘shgan bo‘lamiz va madaniyatimizni rivojlantirish yo‘lida fidoiy bo‘lamiz.

Xulosa. Maktabda musiqa fanida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta’lim jarayonining sifatini oshirish, o‘quvchilarning qiziqishini uyg‘otish va ijodkorligini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. O‘qituvchilar zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda, musiqa fanini yangi darajaga olib chiqish imkoniyatiga ega. Kelajak avlodni tarbiyalash nafaqat o‘qituvchilariga balki barcha ta’lim sohasida ishlaydigan yoshu qariga zarurdir. Tahlillarimiz shuni ko‘rsatadiki, musiqa fanida innovatsion texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarni faollashtirib, ularda ijodiy fikrlashni shakllantiradi. Bu usullar o‘quv jarayonining sifatini oshirib, nafaqat musiqiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi, balki o‘quvchilarning umumiy ta’limga bo‘lgan qiziqishini ham kuchaytiradi. Shu bois, zamonaviy texnologiyalarni musiqa fanida keng qo‘llash dolzarb va samarali yondashuv hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Азизходжаева Н. Н Педагогик техналогиялар ва педагогик махорат. – Toshkent, 2003. – Б. 192
2. Слуева О. В Мусика мактабларида дарс жарайонларида инновациалар. 2021.
3. Saidov R. Ta’limda innovatsion yondashuvlar: Musiqa madaniyati metodikasi. – Samarqand, 2019.
4. Mavlonova G. Ta’limda interaktiv metodlar: nazariya va amaliyot. – Toshkent, 2020.
5. Jononov A. Musiqa fanida yangi texnologiyalarni qo‘llashning samaradorligi. Buxoro, 2021.
6. Collins A., Halverson R. Rethinking Education in the Age of Technology. Teachers College Press, 2018.
7. Салимова Н. Буюк Британия, Финляндия: Хорижда таълим. “Маърифат”, 2020.
8. Усмонов Н., Германияда касб-хунар таълими. Хорижда таълим. “Маърифат”, 2020.